

O'ZBEKISTONDA IQTISODIY O'SISH VA UNGA TASIR ETUVCHI OMILLAR

Nabiyeva Nargizaxon Nuriddin qizi.

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti tayanch doktoranti

E-mail: nargizamadaminova10@gmail.com

Orcid: 0009-0002-3292-2221

Annotatsiya: O'zbekistonda iqtisodiy o'sish turli omillar ta'sirida rivojlanmoqda. Sanoat, qishloq xo'jaligi, investitsiyalar, raqamli iqtisodiyot, ta'lim tizimi, va tashqi savdo kabi sohalar iqtisodiy o'sishning asosiy manbalaridan hisoblanadi. Sanoatni modernizatsiya qilish, qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilish, investitsiyalarni jalb qilish va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish O'zbekistonda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ta'lim tizimining takomillashtirilishi, malakali kadrlar tayyorlash va tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish ham iqtisodiy o'sishning tezlashishiga xizmat qiladi. Bu omillar o'zaro bog'liq bo'lib, mamlakatning barqaror rivojlanishiga yordam beradi.

Аннотация: Экономический рост в Узбекистане развивается под влиянием различных факторов. Промышленность, сельское хозяйство, инвестиции, цифровая экономика, система образования и внешняя торговля являются основными источниками экономического роста. Модернизация промышленности, диверсификация сельского хозяйства, привлечение инвестиций и развитие цифровых технологий важны для обеспечения экономической стабильности в Узбекистане. Также ускорению экономического роста служат совершенствование системы образования, подготовка квалифицированных кадров и расширение внешнеэкономических связей. Эти факторы взаимосвязаны и способствуют устойчивому развитию страны.

Abstract: Economic growth in Uzbekistan is developing under the influence of various factors. Industries, agriculture, investments, digital economy, education system, and foreign trade are the main sources of economic growth. Modernization of industry, diversification of agriculture, attraction of investments and development of digital technologies are important for ensuring economic stability in Uzbekistan. Also, the improvement of the education system, the training of qualified personnel and the expansion of foreign economic relations also serve to accelerate economic growth. These factors are interrelated and contribute to the sustainable development of the country.

Kalit so'zlar: Sanoat, qishloq xo'jaligi, investitsiyalar, raqamli iqtisodiyot, ta'lim tizimi, tashqi savdo, iqtisodiy o'sish, modernizatsiya, diversifikatsiya, malakali kadrlar, innovatsiyalar, iqtisodiy barqarorlik, islohotlar, tashqi iqtisodiy aloqalar.

Ключевые слова: Промышленность, сельское хозяйство, инвестиции, цифровая экономика, система образования, внешняя торговля, экономический

рост, модернизация, диверсификация, квалифицированные кадры, инновации, экономическая стабильность, реформы, внешнеэкономические связи.

Key words: Industry, agriculture, investments, digital economy, education system, foreign trade, economic growth, modernization, diversification, skilled personnel, innovations, economic stability, reforms, foreign economic relations.

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida olib borilgan islohotlar orqali iqtisodiyotning barqaror o‘shishi ta’minlandi, makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik mustahkamlandi, iqtisodiyot va uning ayrim sohalari o‘rtasidagi mutanosiblik kuchaydi; bozor mexanizmining tarkibiy qismlari qaror topdi va uning infratuzilmalari vujudga keltirilib, rivojlantirildi.

Mamlakatimizda iqtisodiy o‘shishning yuqori sur‘atlarini ta’minlanish maqsadida quyidagi jarayonlarning amalga oshirilishiga katta e’tibor qaratildi:


- keng ko‘lamdagi tizimli bozor islohotlarini izchil amalga oshirish;
- xorijiy investitsiyalarni jalb qilish chora-tadbirlarini kuchaytirish;
- iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish;
- ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash;
- eksportga ixtisoslashgan yangi tarmoq va korxonalarni barpo etish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilgan, har tomonlama puxta o‘ylangan siyosatni amalga oshirish.

Iqtisodiy o‘shish negizida iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning rivojlanishi turadi. Iqtisodiy o‘shish ishlab chiqarishning ilg‘or tuzilmasiga, yuqori mehnat unumdorligi darajasiga, ichki va tashqi bozorda talab katta bo‘lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga, mahsulotni qulay bozorlarda sotishga tayanadi.

Boshqacha aytganda, iqtisodiy o‘shish mahsulot ishlab chiqarishning real hajmini muttasil qo‘paytirib borish va ayni paytda jamiyat taraqqiyotida texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarning yaxshilanib borishini anglatadi.

Iqtisodiy o‘shishni aniqlash va hisoblashda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining eng umumiy ko‘rsatkichi bo‘lgan yalpi ichki mahsulot (YAIM) asos bo‘lib xizmat qiladi va iqtisodiy o‘shishning muayyan davr mobaynida real YAIM hajmining ijobiy tomonga o‘zgarishini ko‘rsatadi. Iqtisodiy o‘shish sur‘atlari YAIM o‘shish sur‘atlarida o‘z aksini topadi.

2021-2025 йилларда иқтисодиёт асосий тармоқлари қўшилган қиймати ўсиш суръатлари




1-rasm

Iqtisodiy o‘shish mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining umumiy holatini ifodalaydi. Real YAIM hajmining o‘zgarishi mamlakat iqtisodiyoti holati va dinamikasi to‘g‘risida ma’lumot bersada, iqtisodiy o‘shishni to‘liq aks ettirmaydi. Mas, mamlakat aholisining o‘shish sur’ati 3% ni, real YAIM ning o‘shish sur’ati ham 3% ni tashkil etdi. Bunday holatda, garchi YAIM hajmi o‘sgan bo‘lsada, kishilarning daromadlari o‘zgarmay qoladi. Shu sababli iqtisodiy o‘shishni to‘laroq aks ettirish uchun boshqa bir ko‘rsatkich — aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan real YAIMning o‘zgarishi qo‘llaniladi.

Real YAIM hajmining o‘zgarishi umuman mamlakat iqtisodiyotining muayyan davr oralig‘idagi rivojlanishini ifodalasa, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan real YAIM hajmining o‘zgarishi iqtisodiy rivojlanishga kishilar turmush darajasi orqali baho berishga xizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan YAIM ishlab chiqarish omillari — yer, kapital va mehnat resurslarining o‘zaro ta’sirida shakllanadi. Bular iqtisodiy o‘shishning miqdoriy omillariga kiradi (mas, foydalanilayotgan ekin maydonlarni kengaytirish YAIM o‘shishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi). Ushbu omillarni ishlab chiqarish jarayoniga kengroq jalb etish natijasida yuz beradigan iqtisodiy o‘shish ekstensiv o‘shish deb ataladi.

Iqtisodiy o‘shishning sifat omillari ham mavjud bo‘lib, ularga mehnat, kapital va yer (tabiiy) resurslari unumdorligi kiradi. Sifat omillari hisobiga yuz beradigan iqtisodiy o‘shish intensiv o‘shish deb yuritiladi.



2-rasm

Ishlab chiqarish omillarining cheklanganligi ekstensiv o‘shishning imkoniyatlarini chegaralaydi. Shu sababli resurslar cheklanganligi sharoitida intensiv o‘shish samarali hisoblanadi. Fantexnika taraqqiyoti ham intensiv iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiradi. Keyingi yillarda bir qator ijtimoiy qo‘rsatkichlar iqtisodiy o‘shish sharti va natijasi tarzida qaralmoqda. o‘shish sohasida — bandlikning yukobiy dinamikasi; taqsimot sohasida — aholining real daromadlari va boshqalar bir qator ko‘rsatkichlar dinamikasi; ayirboshlash sohasida — savdo va umumiy ovqatlanish moddiy bazasining rivoji, chakana savdo aylanmasi dinamikasi; iste’mol sohasida — iste’molning va noishlab chiqarish jamg‘arishning o‘shishi shunday ko‘rsatkichlarga kiradi. Iqtisodiy o‘shishning asosiy ijobiy tomoni — uning ishlab chiqarish va iste’mol tuzilmasi o‘zgarishlariga ta’sir ko‘rsatishidir.

Amerikalik iqtisodchilar Kempbell Makkonnel va Stenli Bryu tadqiqotiga ko‘ra, mamlakatning iqtisodiy o‘shishi olti omil bilan belgilanadi:

1. Tabiiy resurslarning miqdori va sifati. Ko‘proq mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish imkoniyati xom ashyoning mavjudligiga bog‘liq.
2. Mehnat resurslarining miqdori va sifati. Ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar hajmi va sifati shu omilga bog‘liq.
3. Asosiy kapitalning hajmi. Bu omil ishlab chiqarishni rivojlantirishga yo‘naltirilishi mumkin bo‘lgan mablag‘lar miqdorini cheklaydi.
4. Texnologiyalar. Bu omil tovar va xizmatlarni qanday ishlab chiqarish mumkinligini belgilaydi.
5. Talab omili. Iqtisodiy o‘shish uchun zarur.
6. Samaradorlik omili. Bu omil ham tabiiy, ham inson resurslarini o‘z ichiga oladi. Ulardan shunday foydalanish kerakki, resurslardan foydalanish eng kam xarajat bilan amalga oshiriladi.

Real mahsulot o‘shishini aniqlab beruvchi omillar, real mahsulot ikki asosiy usulda ko‘paytirilishi mumkin:

- 1) resurslarning ko‘proq hajmini jalb etilishi.
- 2) ulardan ancha unumli foydalanish yo‘li.

Respublika oldida texnika taraqqiyoti sohasidagi asosiy vazifa ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyani qo‘llash. ishlab chiqarishni tashkil qilish va boshqarishning yangi usul va shakllarini joriy qilish hisoblanadi. Mehnat unumdorligining o‘shirishini aniqlab beruvchi asosiy omil har bir ishlovchiga to‘g‘ri keluvchi asosiy kapital hajmi hisoblanadi. Ma’lum vaqt ichida, kapitalning hajmi mutloq ko‘payishi mumkin. ammo ishchi kuchi soni tezroq o‘ssa, mehnat unumdorligi pasayadi, chunki har bir ishchining asosiy kapital bilan qurollanganlik darajasi kamayadi. Ma’lumki, yalpi milliy (ichki) mahsulot ishchi kuchi, kapital va tabiiy resurslar sarflarining funksiyasi hisoblanadi,

ya’ni: $Y = f(L, K, N)$.

Bu yerda: Y — yalpi milliy (ichki) mahsulot; L — ishchi kuchi sarflari;

K — kapital sarflari;

N — tabiiy resurslar sarflari.

Bu funksional bog‘lanishdan kelib chiqqan holda iqtisodiy o‘shirishni belgilab beruvchi bir qator xususiy ko‘rsatkichlarni keltirib chiqarish mumkin:

1) mehnat unumdorligi (Y/L) - mahsulot ishlab chiqarish hajmining jonli mehnat sarflariga nisbati;

2) mehnat sig‘imi (L/Y) — jonli mehnat sarflarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

3) kapital samaradorligi (Y/K) - mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan kapital xarajatlariga nisbati;

4) kapital sig‘imi (K/Y) — kapital xarajatlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

5) tabiiy resurslar samaradorligi (Y/N) — mahsulot ishlab chiqarish hajmining unga sarflangan tabiiy resurslar xarajatlariga nisbati;

6) mahsulotning resurslar sig‘imi (N/Y) — tabiiy resurslar sarfining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga nisbati;

7) ishchi kuchining kapital bilan qurollanganlik darajasi (K/L) — ishlab chiqarish jarayonida qo‘llanilayotgan kapital hajmining ishchi kuchi miqdoriga nisbati. Iqtisodiy o‘shirishni tahlil qilishda yuqorida ko‘rib chiqilgan ko‘rsatkichlardan tashqari yana keyingi qo‘shilgan ishlab chiqarish omillari unumdorligi ko‘rsatkichlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu ko‘rsatkichlar, boshqa omillar sarfi o‘zgarmagani holda, har bir alohida omil sarfining qo‘shimcha o‘shirish ta’sirida mahsulot ishlab chiqarish hajmining qo‘shimcha o‘shirish hajmini belgilab beradi:

1) keyingi qo‘shilgan mehnat unumdorligi ($\Delta Y/\Delta L$);

2) keyingi qo‘shilgan kapital unumdorligi ($\Delta Y/\Delta K$);

3) keyingi qo‘shilgan tabiiy resurslar unumdorligi ($\Delta Y/\Delta N$).

Bu ko‘rsatkichlar yalpi mahsulot ishlab chiqarish umumiy hajmining o‘shirishida har bir omilning hisssasi ni namoyon etib, u quyidagicha aniqlanadi:

$$Y = (\Delta Y/\Delta L) L + (\Delta Y/\Delta K) K + (\Delta Y/\Delta N) N.$$

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilsak, islohotlardan ko‘zlangan maqsad va ko‘rsatkichlarga tayanib xulosa qiladigan bo‘lsak bularning bari tadbirkorlik subyektlari uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va ularni faoliyatini nuqsonlar va qiyinchiliklarsiz yo‘lga qo‘yishini qo‘llab-quvvatlash harakatidir.

Faqatgina bulardan oqilona foydalanib qolish kerak xolos. Natija Respublika iqtisodiy rivojiga hissa qo‘shish va o‘z tadbirkorligini yo‘lga qo‘yib uni rivojlantirishdir.

Milliy boylik muhim ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo‘lib u ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining boshlang‘ich va yakuniy holatini belgilaydi. milliy boylik hajmining ortishi iqtisodiy o‘shishning muhim omili hisoblanadi. shu bilan birga milliy boylikda ishlab chiqarish jarayonining natijalari jamlanadi. u ishlab chiqarilgan mahsulot hisobiga to‘ldiriladi hamda yangilanadi. Milliy boylik hajmi, uning tarkibi, dinamikasi hamda ulardan foydalanish darajasi davlat va xalqaro statistikada mamlakat ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishining muhim yakunlovchi ko‘rsatkichlari sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2022-yil 17-maydagi “Tibbiyot muassasalari xodimlarini moddiy qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirishni kuchaytirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi PF-136-son sonli qarori.
2. Prezidentning 2022-yil 11-apreldagi «Tibbiyotda xususiy sektor faoliyatiga qo‘shimcha qulayliklar yaratish va soha xodimlarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni.
3. SH.SH. Shodmonov, .U.V G‘ofurov Iqtisodiy nazariya. Ma’ruzalar matni.- T:“Fan va texnologiya” nashr-2018.
4. A.SH. Bekmurodov, U.V. G‘ofurov O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustivor yo‘nalishlar: o‘quv qo‘llanma. – T:TDIU-2007.
5. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasi 2008-yil T: 2007
6. Ziyayev T.M. Tarmoq va korxona iqtisodiyoti. – T: TDIU 2007
7. <http://parliament.gov.uz/uz/events/committee/23612/>.
8. <http://stat.uz>.
9. <http://uza.uz/oz/politics>.
10. <http://www.doingbusiness.org/data>.
11. <https://uzlidep.uz/news-of-party/3976>.